PASHTU TILI LAHJALARINING ADABIY TIL SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHIDAGI O‘RNI: YOZMA VA OG‘ZAKI NUTQ MUNOSABATI

Akromova Shodiyaxon Ikrom qizi
Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti
2-bosqich magistranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada Pashtu tilining hududiy lahjalari va ularning adabiy til bilan o‘zaro munosabati masalasi lingvistik hamda ijtimoiy-kommunikativ jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda, xususan, Qandahor, Nangrahor, Kobul va Paktiyo hududlarida qo‘llanadigan lahjaviy variantlarning fonetik, leksik, morfologik va kommunikativ xususiyatlari, ularning umumiy adabiy tilga ta’siri hamda yozma va og‘zaki nutq o‘rtasidagi tafovutlar ko‘rib chiqiladi. Pashtu tilida mavjud lahjaviy xilma-xillik tilning ichki taraqqiyot imkoniyatlarini namoyon qilishi bilan birga, yagona adabiy me’yorni belgilash, ta’lim, ommaviy axborot vositalari va rasmiy kommunikatsiyada umumiy til variantidan foydalanish masalalarini ham murakkablashtiradi. Maqolada Qandahor lahjasining ayrim konservativ fonetik xususiyatlari, Nangrahor lahjasidagi innovatsion jarayonlar, Kobul nutqining ko‘pvariantlilik va boshqa tillar bilan aloqadorligi hamda Paktiyo hududidagi leksik xususiyatlar o‘zaro qiyoslanadi. Tadqiqot natijasida Pashtu adabiy tilini shakllantirish jarayonida lahjalarni cheklash yoki ularni adabiy tildan ajratish emas, balki ularning funksional imkoniyatlarini ilmiy asosda tartibga solish muhimligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: Pashtu tili, lahja, adabiy til, Qandahor lahjasi, Nangrahor lahjasi, Kobul lahjasi, Paktiyo lahjasi, standart til, fonetik variant, leksik variant, og‘zaki nutq, yozma nutq, til me’yori.

Kirish. Tilning ichki rivojlanish jarayoni uning hududiy va ijtimoiy variantlarining mavjudligi bilan chambarchas bog‘liq. Ayniqsa, geografik jihatdan keng hududda tarqalgan va tarixiy-siyosiy jihatdan turli lingvomadaniy muhitlarda rivojlangan tillarda lahjaviy farqlanish tabiiy hodisa hisoblanadi. Pashtu tili ham ana shunday murakkab dialektal tuzilishga ega tillardan biridir. Tadqiqotlarda Pashtu tilining yirik hududiy variantlari Qandahor yoki janubi-g‘arbiy, Kobul yoki markaziy, Nangrahor yoki sharqiy guruhlar doirasida tavsiflanadi; ayrim tasniflarda esa ikki, uch, to‘rt yoki besh guruhli modellar taklif etilgan. [1; 2].

Pashtu lahjalarining asosiy tafovutlari ko‘pincha fonetik tizimda yaqqol namoyon bo‘ladi. Qandahor lahjasida retrofleks undoshlar va dental affrikatalarning ayrim o‘ziga xos realizatsiyalari saqlangan bo‘lsa, boshqa hududiy variantlarda ushbu tovushlarning talaffuzida muayyan o‘zgarishlar kuzatiladi. Shu sababli Qandahor lahjasi ko‘plab tadqiqotlarda Pashtu tilining nisbatan konservativ variantlaridan biri sifatida qaraladi. Nangrahor va unga yaqin sharqiy variantlarda esa fonetik almashinuv, tovush tushishi, tovush orttirilishi, unli tovushlarning o‘zgarishi va boshqa jarayonlar kuzatiladi [3].

Biroq Pashtu lahjalarini faqat fonetik farqlar asosida o‘rganish masalaning mohiyatini to‘liq ochib bermaydi. Bugungi kunda muhim masalalardan biri — lahja va adabiy til o‘rtasidagi funksional munosabatdir. Chunki lahjalar kundalik og‘zaki muloqotning asosiy vositasi bo‘lishi bilan birga, adabiy tilning fonetik, leksik va ayrim grammatik resurslarini ham boyitadi. Ayni paytda adabiy tilning ta’lim, matbuot, radio, televideniye, internet va rasmiy kommunikatsiyadagi mavqei lahjalarning qo‘llanish doirasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtayi nazardan,

Pashtu tilining hozirgi taraqqiyotida ikki qarama-qarshi jarayonni ko‘rish mumkin: bir tomondan, standartlashuv va umumiy adabiy me’yorni shakllantirishga intilish; ikkinchi tomondan esa, hududiy lahjalarning barqaror saqlanishi va yangi kommunikativ sharoitlarda qayta namoyon bo‘lishi. Zamonaviy tadqiqotlarda ham Pashtu tilining standartlashuvi bilan bir qatorda uning katta dialektal xilma-xilligi va yozuv hamda talaffuz o‘rtasidagi murakkab munosabat qayd etiladi [4].

Tadqiqotning maqsadi va metodologiyasi: Tadqiqotning asosiy maqsadi Pashtu tilidagi hududiy lahjalarning adabiy til bilan munosabatini aniqlash, lahjaviy farqlarning yozma va og‘zaki nutqqa ta’sirini ko‘rsatish hamda zamonaviy standartlashuv jarayonida lahjalarning o‘rnini belgilashdan iborat.

Tadqiqot obyekti sifatida Pashtu tilining Qandahor, Nangrahor, Kobul va Paktiyo hududlarida shakllangan lahjaviy variantlari olindi.

Tadqiqotda qiyosiy-tarixiy, tavsifiy, qiyosiy-tipologik, dialektologik va lingvistik-geografik metodlardan foydalanildi. Shuningdek, fonetik va leksik variantlarni taqqoslash orqali lahjalararo farqlar hamda ularning adabiy til bilan munosabati tahlil qilindi.

Pashtu tilining dialektal tarkibi. Pashtu tilining dialektal tasnifi masalasida tilshunoslar o‘rtasida yagona qarash mavjud emas. Ayrim tadqiqotlarda ikki yirik guruh — Qandahor va Yusufzay/Peshovar tipidagi variantlar ajratilsa, boshqa tasniflarda G‘arbiy (Qandahor), Markaziy (Kobul) va Sharqiy (Nangrahor) guruhlari ko‘rsatiladi [2]. Ayrim tadqiqotchilar esa geografik va fonetik mezonlarni birlashtirib, to‘rt yoki besh guruhli tasniflarni taklif qilganlar. Bunday xilma-xillik, avvalo, Pashtu lahjalarining o‘zaro uzluksizligi bilan izohlanadi. Lahjalar o‘rtasidagi chegara doimo qat’iy bo‘lmay, bir hududdan ikkinchisiga o‘tishda fonetik, leksik va grammatik xususiyatlar bosqichma-bosqich o‘zgarib boradi. Masalan, Nangrahor va markaziy hududlar oralig‘idagi ayrim variantlarda o‘tish xususiyatlarining mavjudligi qayd etilgan. Xususan, Xogyani varianti Sharqiy va Markaziy Pashtu o‘rtasidagi o‘tish shakli sifatida ham tavsiflangan [5]. Demak, Pashtu lahjalarini

qat’iy geografik chegaralar bilan ajratishdan ko‘ra, ularni izoglossalar, fonetik o‘zgarishlar, leksik variantlar va ijtimoiy-kommunikativ omillar asosida tavsiflash ilmiy jihatdan samaraliroqdir.

Qandahor lahjasining adabiy til tizimidagi mavqei. Qandahor lahjasi Pashtu tilining janubi-g‘arbiy variantlaridan biri bo‘lib, uning fonetik tizimida ayrim qadimiy yoki konservativ xususiyatlar nisbatan yaxshi saqlangan. Ushbu lahjada retrofleks frikativlar hamda dental affrikatalarning o‘ziga xos talaffuzi boshqa hududiy variantlardan farqlanadi.

Qandahor lahjasining ijtimoiy nufuzi uning tarixiy-siyosiy va madaniy mavqei bilan ham bog‘liq. Ayrim tadqiqotlarda Qandahor varianti Pashtuning standart yoki nufuzli variantlari bilan aloqador holda ko‘rsatiladi [6]. Biroq bu holat Qandahor lahjasini boshqa lahjalardan lingvistik jihatdan “ustun” deb baholash uchun asos bo‘la olmaydi.

Dialektologik nuqtayi nazardan, “ustun” yoki “quyi” lahja tushunchalaridan ko‘ra, ijtimoiy nufuz tushunchasidan foydalanish maqsadga muvofiq. Chunki har bir lahja o‘z hududida tabiiy kommunikativ vazifani bajaradi va tilning umumiy tarixiy xotirasini saqlaydi.

Qandahor lahjasining muhim xususiyatlaridan biri uning yozuv va talaffuz munosabatidagi mavqeidir. Pashtu yozuvi asosan fors-arab grafik tizimiga asoslangan bo‘lsa-da, tilning o‘ziga xos fonemalarini ifodalash uchun qo‘shimcha belgilar mavjud. Shu sababli yozuvning umumiyligi turli lahja vakillariga bir xil matnni o‘z hududiy talaffuziga mos tarzda o‘qish imkonini beradi.

Nangrahor lahjasi va fonetik innovatsiyalar. Nangrahor lahjasi Pashtu tilining sharqiy hududiy variantlari tarkibiga kiradi. Ushbu lahjada fonetik o‘zgarishlar,

tovushlarning almashinuvi, tushishi yoki orttirilishi hamda ayrim leksik farqlar kuzatiladi.

Nangrahor hududida mavjud kichik lahjaviy variantlarning o‘rganilishi Pashtu dialektologiyasining yangi yo‘nalishlaridan biridir. Masalan, Xogyani lahjasiga bag‘ishlangan zamonaviy tadqiqotlarda epenteza, unli tovushlarning siljishi, metateza, tovush almashinuvi, undosh birikmalarining soddalashuvi va unli tovush cho‘ziqligidagi farqlar izoglossalar asosida tahlil qilingan [5].

Bu holat muhim metodologik xulosaga olib keladi: Pashtu lahjalari faqat “Qandahor”, “Kobul” yoki “Nangrahor” kabi yirik hududiy nomlar orqali emas, balki kichik hududiy variantlar va ularning o‘zaro kesishuvchi izoglossalari asosida ham tadqiq qilinishi lozim. Nangrahor lahjasining yana bir muhim jihati uning boshqa hududlar bilan faol kommunikativ aloqasidir. Migratsiya, ta’lim, ommaviy axborot vositalari va shaharlararo muloqot natijasida mahalliy talaffuz shakllari adabiy til variantlari bilan doimiy aloqaga kirishadi. Natijada ayrim sof lahjaviy xususiyatlar zaiflashishi, ayrimlari esa yangi ijtimoiy vazifalar bilan qayta faollashishi mumkin.

Kobul lahjasi va ko‘pvariantlilik muammosi. Kobul Pashtu tilining markaziy hududiy variantlari shakllanishida alohida o‘rin tutadi. Poytaxtning ko‘p tilli va ko‘p etnik kommunikativ muhiti Kobul nutqining boshqa lahjalardan farqli xususiyatlar kasb etishiga sabab bo‘lgan.

Kobuldagi til vaziyati Pashtu va Dari tillarining uzoq muddatli o‘zaro ta’siri bilan xarakterlanadi. Shuning uchun Kobul nutqida boshqa hududiy variantlarga nisbatan til kontaktining ta’siri kuchliroq namoyon bo‘lishi mumkin. Zamonaviy tadqiqotlarda ham Kobul Pashtusida Dari ta’siri, shuningdek turli hududiy Pashtu variantlarining qorishuvi qayd etiladi [7].

Shu sababli Kobul lahjasini faqat bitta hududga xos “sof” lahja sifatida emas, balki shahar kommunikatsiyasi, migratsiya, ta’lim va ko‘p tillilik sharoitida shakllangan dinamik variant sifatida baholash maqsadga muvofiq.

Paktiyo lahjasi va leksik variantlilik. Pashtu tilidagi dialektal farqlanish faqat fonetik hodisalar bilan cheklanmaydi. Leksik qatlamda ham hududiy variantlarning mavjudligi yaqqol ko‘rinadi. Paktiyo va Nangrahor hududlaridagi og‘zaki nutqni qiyosiy o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlarda yosh va hudud omillarining leksik variantlarga ta’siri alohida qayd etilgan [8].

Leksik variantlilik adabiy tilning rivojlanishi uchun ikki tomonlama ahamiyatga ega. Bir tomondan, turli hududlarda qo‘llanadigan sinonimik va variant birliklar umumxalq tilining lug‘aviy boyligini kengaytiradi. Ikkinchi tomondan, rasmiy va yozma kommunikatsiyada qaysi variantning me’yor sifatida tanlanishi muammosi paydo bo‘ladi.

Bu yerda asosiy masala lahjaviy birliklarning “to‘g‘ri” yoki “noto‘g‘ri” ekanligini belgilash emas, balki ularning qo‘llanish sohasi, chastotasi, tarixiyligi va umumiy kommunikativ tushunarlilik darajasini aniqlashdan iborat.

Lahja va adabiy til: qarama-qarshilik emas, o‘zaro ta’sir. Lahja va adabiy til ko‘pincha bir-biriga qarama-qarshi tushunchalar sifatida talqin qilinadi. Aslida esa ular bir til tizimining turli funksional ko‘rinishlari bo‘lib, o‘zaro doimiy ta’sirda mavjud bo‘ladi.

Lahjalar adabiy tilga:

- fonetik birliklar;
- leksik birliklar;
- frazeologik birliklar;
- ayrim grammatik shakllar;

-uslubiy vositalar orqali ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Aksincha, adabiy til ham ta’lim, matbuot, televideniye, radio, internet va rasmiy hujjatlar orqali mahalliy lahjalarga ta’sir ko‘rsatadi. Shu tariqa ikki tomonlama jarayon yuzaga keladi: lahjalar adabiy tilni oziqlantiradi, adabiy til esa lahjalarning funksional doirasini qayta shakllantiradi.

Pashtu tilida ushbu munosabat ayniqsa murakkabdir. Chunki tilning bir necha yirik hududiy variantlari ijtimoiy va madaniy jihatdan muayyan nufuzga ega. Tadqiqotlarda Qandahor, Jalolobod va Kobul kabi markazlarda shakllangan regional standartlar mavjudligi va ularning mahalliy lahjalar bilan aloqadorligi ko‘rsatilgan [7].

Shunday qilib, Pashtu tilining yagona adabiy me’yorini yaratish jarayonida birgina hududiy variantni mutlaq mezon sifatida qabul qilishdan ko‘ra, turli hududiy variantlarning umumiy va farqli xususiyatlarini aniqlash ilmiy jihatdan asosliroqdir.

Yozma va og‘zaki Pashtu o‘rtasidagi tafovut. Pashtu tilining muhim xususiyatlaridan biri yozma va og‘zaki shakllar o‘rtasidagi munosabatdir. Pashtu yozuvi fors-arab grafik an’anasi asosida shakllangan bo‘lib, tilning o‘ziga xos fonemalarini ifodalash uchun maxsus belgilar bilan boyitilgan.

Yozuvning nisbatan umumiy xarakteri turli lahja vakillari uchun muayyan kommunikativ birlikni yaratadi. Biroq bir xil yozma birlikning turli hududlarda turlicha talaffuz qilinishi mumkin. Natijada grafik birlik va fonetik variantlilik bir vaqtning o‘zida mavjud bo‘ladi.

Bu holat Pashtu tilining adabiy me’yorini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Yozma til yagona me’yorni ta’minlashga xizmat qilsa, og‘zaki til hududiy va ijtimoiy variantlarni saqlab qoladi.

Demak, yozma va og‘zaki Pashtu o‘rtasidagi farqni “me’yoriy va nome’yoriy” qarama-qarshiligi sifatida talqin qilish to‘g‘ri emas. Ular tilning ikki xil funksional shakli bo‘lib, bir-birini to‘ldiradi.

Ommaviy axborot vositalari va lahjaviy xilma-xillik. Bugungi kunda Pashtu lahjalarining rivojlanishida ommaviy axborot vositalarining roli tobora ortib bormoqda. Radio, televideniye, internet nashrlari va ijtimoiy tarmoqlar turli hududlarda qo‘llanadigan variantlarning kengroq auditoriyaga tarqalishini ta’minlamoqda.

Media tilida bir vaqtning o‘zida ikki jarayon kuzatiladi. Birinchisi — standartlashuv: jurnalistlar va ommaviy axborot vositalari umumiy tushunarli til variantidan foydalanishga intiladi. Ikkinchisi — diversifikatsiya: mahalliy auditoriyaga mo‘ljallangan materiallarda hududiy talaffuz, leksika va iboralar faol qo‘llanadi.

Shu sababli zamonaviy media Pashtu tilida nafaqat standartlashtiruvchi, balki lahjaviy xususiyatlarni ommalashtiruvchi vosita sifatida ham namoyon bo‘ladi.

Bu masala ayniqsa muhim, chunki standart tilni faqat grammatik va lug‘aviy qoidalar orqali emas, balki real kommunikativ amaliyot orqali ham belgilash zarur. Media tili ana shu amaliyotning eng faol maydonlaridan biridir.

Pashtu tilini standartlashtirishning dolzarb muammolari. Pashtu tilining dialektal xilma-xilligi standartlashtirish jarayonini bir necha jihatdan murakkablashtiradi.

Birinchidan, fonetik xilma-xillik mavjud. Bir xil fonema turli hududlarda turlicha talaffuz qilinishi mumkin.

Ikkinchidan, leksik variantlilik mavjud. Bir tushunchani ifodalovchi bir necha hududiy birliklarning parallel qo‘llanishi adabiy me’yorni tanlashni murakkablashtiradi.

Uchinchidan, yozuv va talaffuz munosabati masalasi mavjud. Yagona grafik tizim mavjud bo‘lsa-da, uning og‘zaki realizatsiyasi hududlarga ko‘ra farqlanishi mumkin.

To‘rtinchidan, ijtimoiy nufuz masalasi mavjud. Qaysi lahjaning “adabiy” yoki “standart” deb tan olinishi faqat lingvistik emas, balki tarixiy, siyosiy, madaniy va ta’limiy omillar bilan ham bog‘liq.

Beshinchidan, media va raqamli kommunikatsiya tilning yangi variantlarini tez tarqatmoqda. Internet muhitida an’anaviy adabiy me’yor bilan hududiy og‘zaki variantlar o‘rtasidagi chegaralar tobora moslashuvchanlashmoqda. Shu jihatdan Pashtu tilining zamonaviy standartlashuvini “bitta lahjani tanlash” tamoyili asosida

emas, balki umumiy me’yor + hududiy variantlilik modeli asosida tadqiq qilish maqsadga muvofiq.

Ilmiy yangilik va mualliflik yondashuvi. Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi Pashtu lahjalarini alohida-alohida fonetik tavsiflash bilan cheklanmasdan, ularni adabiy til, yozma-og‘zaki nutq, media va standartlashuv jarayonlari bilan yagona tizimda ko‘rib chiqishidadir. Tadqiqot natijalari asosida Pashtu tilidagi lahjaviy munosabatni quyidagi model orqali ifodalash mumkin:

Hududiy lahja → og‘zaki kommunikatsiya → ijtimoiy nufuz → media va ta’lim → adabiy me’yor → qayta hududiy ta’sir. Ushbu model lahja va adabiy til o‘rtasidagi munosabat bir tomonlama emasligini ko‘rsatadi. Ya’ni adabiy til lahjalarga ta’sir qilgani kabi, lahjalar ham adabiy tilning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtayi nazardan Pashtu tilining kelajakdagi dialektologik tadqiqotlari quyidagi yo‘nalishlarga e’tibor qaratishi lozim:

1. Pashtu lahjalarining zamonaviy dialektologik atlasini yaratish;
2. fonetik izoglossalarni xaritalashtirish;
3. Qandahor–Nangrahor–Kobul–Paktiyo variantlarining leksik bazasini qiyosiy o‘rganish;
4. og‘zaki va yozma Pashtu korpusini shakllantirish;
5. media Pashtusining hududiy xususiyatlarini aniqlash;
6. yosh avlod nutqida lahjaviy xususiyatlarning saqlanish darajasini aniqlash;
7. standart Pashtu bilan hududiy variantlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni korpus lingvistikasi asosida tadqiq qilish.

Xulosa

Pashtu tilining lahjaviy tizimi uning ichki lingvistik boyligi va tarixiy taraqqiyotining muhim ko‘rsatkichidir. Qandahor, Nangrahor, Kobul va Paktiyo

variantlari o‘rtasidagi fonetik, leksik va ayrim grammatik tafovutlar tilning hududiy rivojlanish xususiyatlarini namoyon etadi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, Pashtu lahjalarini adabiy tilga qarama-qarshi qo‘yish ilmiy jihatdan yetarli emas. Lahjalar adabiy til uchun muhim fonetik, leksik va uslubiy manba vazifasini bajaradi. Adabiy til esa ta’lim, media va rasmiy kommunikatsiya orqali hududiy lahjalarning rivojlanishiga qayta ta’sir ko‘rsatadi.

Qandahor lahjasining nisbatan konservativ fonetik xususiyatlari, Nangrahor hududidagi innovatsion va o‘tish jarayonlari, Kobul nutqidagi ko‘p tilli shahar muhitining ta’siri hamda Paktiyo va Nangrahor hududlaridagi leksik variantlilik Pashtu tilining bir xil emas, balki ko‘p markazli va dinamik til tizimi ekanligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, yozma va og‘zaki til o‘rtasidagi munosabat ham Pashtu tilining zamonaviy rivojlanishida alohida ahamiyatga ega. Yozuv umumiy kommunikativ birlikni ta’minlasa, og‘zaki nutq hududiy va ijtimoiy xilma-xillikni saqlaydi. Shu sababli standartlashtirish jarayonida lahjaviy variantlarni yo‘qotish emas, balki ularni ilmiy asosda tavsiflash va umumiy adabiy me’yor bilan uyg‘unlashtirish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tegey, H., & Robson, B. A Reference Grammar of Pashto. Washington, D.C.: Center for Applied Linguistics, 1996.

2. Dinakhel, M. A. Comparison of Two Dialects of Pashto, Spoken in Afghanistan and Pakistan: Kandahari Dialect and Yusufzai Dialect. Central Asia, 86, 127–139, 2020. DOI: 10.54418/ca-86.77.

3. Akromova, S., & Abduvaliyeva, U. S. Comparative Analysis of Phonetic Changes in the Pronunciation of Kandahar and Nangarhar Dialects. Builders Of The Future, 6(02), 50–56, 2026.

4. Aail, N. A., & Androsova, S. V. Modern Pashto – linguistic situation and the extent of study: Theoretical review. Philology. Theory & Practice, 17(7), 2024. DOI: 10.30853/phil20240331.

5. Khaliqyar, M., & Sapand, A. J. Investigating Isoglosses in the Khogyani Dialect. Nangarhar University Journal of Arts and Humanities, 2026. DOI: 10.70436/nujah.v1i02.23.

6. Abduqodirova, K., & Abduvaliyeva, O. Relationship of Pashto Dialects with Literary Language and Their Role in Social Life (Based on the Dialects of Kandahar, Nangarhar, Kabul, and Paktiya). Builders Of The Future, 5(03), 95–101, 2025. DOI: 10.37547/builders-v5-i3-13.

7. Ullah, Q., Ur Rehman, S., & Raza, S. The Dual Faces of Pashto: Analyzing Diglossia and Vernacular Diversity Using Ferguson's Framework and the Strategies to Explore the Regional Varieties. Journal of Policy Research, 10(3), 170–178, 2024. DOI: 10.61506/02.00333.

8. Kamal, K. D., & Hanafi, S. M. Lexical Variants in Pashto: A Comparative Study Accompanied in Paktia and Nangrahar. International Journal for Research in Applied Sciences and Biotechnology, 9(1), 66–73, 2022. DOI: 10.31033/ijrasb.9.1.6.

9. Иномжожаев, Р. Pachtu tili grammatikasi. Toshkent, 2020.

10. Иномхожаев, Р. Афғонистонда тил вазияти ва тил соҳасидаги давлат сиёсати. Toshkent, 2020.

11. Маннонов, А. Шарқшунослик масалалари. Toshkent, 2022.

12. Дворянков, Н. А. Литературный язык и диалекты пашто в Афганистане. Народы Азии и Африки, №2, 1963.